

**IJODKORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDA TARBIYADA HADISLARDAN**  
**FOYDALANISHNING AHAMIYATI**  
**Matlubaxon Shokirova Xalimdjanovna**

Andijon viloyat Oltinko`l tuman 12-umumta`lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi

[matlubaxonshokirova12@gmail.com](mailto:matlubaxonshokirova12@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10680059>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiyo`rta ta`lim maktablari va boshqa bir qator ta`lim maskanlari, oilada to`g`ri ta`lim-tarbiya olish, ma`naviy jihatdan yetuk va barkamol bo`lishda hadislarning rolini ko`rib chiqishga qaratilgan.*

**Kalit so`zlar:** sahabalar, farzand, tarbiya, oila, solih, soliha.

*Аннотация. В этой статье обсуждается роль хадисов в общеобразовательных школах и ряде других учебных заведений, в правильном воспитании в семье, в духовной зрелости и развитии.*

**Ключевые слова:** товарищи, дети, воспитание, семья, праведник, праведник.

*Abstract. This article discusses the role of hadiths in general secondary schools and a number of other educational institutions, in the proper education in the family, in spiritual maturity and development. focused.*

**Keywords:** companions, children, upbringing, family, righteous, righteous.

Farzand - inson hayoti mazmuni, nasl-nasabini davom ettiruvhisiga, oilaning mustahkam zanjiridir. Yaxshi, solih farzand – ota-onaning baxt-iqboli, ikki dunyo saodatiga yetkazuvchi dilbandi. Farzandlar “jannat rayhonlari” deb tavsiflanishi beziz emas. Ammo u odobli, yaxshi fazilatlar sohibi, itoatkor va qobil bo`lganidagina ota onasiga rahmat va baxt - xursandchilik keltiradi. Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur” deganlarida tarbiyaning millat ravnaqi va yurt kelajagiga nechog`lik ahamiyatli ekanligini ifodalagan. Alloh taologa shukurlar bo`lsinki, bugungi kunda yurtimizda ko`plab ijobjiy o`zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, ma`naviy-marifiy sohada ko`zimizni quvontiradigan xayrlar ishlar bo`lyapti. Davlatimiz barkamol avlodni imom Buxoriy, imom

Termiziy, Burhoniddin Marg’iloniy kabi buyuk ajdodlarga munosib qilib tarbiyalash g`oyasi ilgari surilmoqda. Qur’on, hadis, aqid, fiqx ilmiy markazlari ochilib, yaxshi niyat bilan bu azizlarimizning nomi bilan nomlanmoqda. Imom Buxoriyning Islom olamida Qur’oni Karimdan keyin ikkinchi muqaddas kitob hisoblanmish “Al Jomii as-sahih” asarining o’zbek tilida xalqimizga yetkazilishi katta voqeа bo`lib, u dinu e’tiqodimizni hamda ma`naviy qadriyatlarimizni tiklashda, kishilarni ahloq-odob, halollik, rostgo`ylik, poklik singari umuminsoniy fazilatlarni qaror toptirish va mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir. Rasululloh (s.a.v)ning turli sharoitlarda shariat ahkomlariga aytgan so`zlari hadis bo`lib, uni to`plovchilar muhaddislar deb yuritiladi.

Hadislarda ilm va uni o`rgatishlik fa`zilatiga katta e’tibor qaratilgan. *Rasululloh aytganlar:* “Tushimda menga bir idishda sut keltirildi, qongunimcha ichdim, hatto tirdoqlarimdan sut chiqqanini ko`rdim”. Sahobalar so`radilar: “Yo Rasululloh, sutni nimaga yo`ydingiz?” “Ilmga” – dedilar Rasululloh sallallohu alayhi vasallam. Keyngi yillarda ilm dargohlarida keng islohotlar bo`lyapti, maktablarda odobnoma, vatan tuyg’usi, milliy istiqlol g`oyasi, din tarixi turkumiga kiruvchi fanlarning o`rniga prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev farmoniga ko`ra “Tarbiya” darslarining joriy etilishi va tahsil berish uchun hayot sinovlarida toblangan, tarbiya berishga munosib ustozlarning jalb etilishi yurtimizda islom madaniyati, tarbiyasi, yo`l-yoriqlarini yosh

avlodga yetkizib berish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Hadislarda aytilganidek “Ilmni Chinga borib bo’lsa ham o’rgan”. Lekin hozir ilmni o’rganish uchun Chinga borish shart emas. O`zbekistonda barcha ilmlarni to`la-to`kis va mukammal o’rganish uchun yetarlicha resurslar yaratilgan. Yoshlardan esa prezidentimiz va davlatimiz yaratib bergen imkoniyatlardan unumli foydalanib, ilm cho`qqisiga erishish uchun rag`bat bo`lsagina kifoya. Rasululloh (s.a.v) farzandalarning ruhiy, ma’naviy, jismoniy, barkamolligiga alohida e’tibor bergenlar. Bir hadisda: “ Farzandlaringizga suzishni, minishni va otishni o’rgatinglar”, deb buyurganlar, bu ishlarni qo`llab quvvatlaganar, boshqalarga ham targ`ib qilganlar. Ana shunday buyuk tarbiya maktabini o’rganish, undan bugungi kunimiz uchun na’muna olish har birimizning burchimizdir. Bu dolzarb masala bugungi kunning talabiga aylanib qoldi.

Oila va solih farzandlar ko`rishni orzu qilmagan inson bo`lmasa kerak. Farzandning yaxshi, odobli, mehnatsevar, sog`lom bo`lib o`sishi ko`p jihatdan onasiga bog’liq. Go`zal hulq va tarbiyali onaning hislatlari, yaxshi fe’l - atvori farzandlarida ham namoyon bo`ladi. Tabobat fani onadagi turli ichki xastaliklar bolada ham bo`lishini, irlisyat fani esa bu kasalliklar undagi ruhiy, ma’naviy jihatlarning ham bolada takrorlanishini isbotlagan. Oisha onamiz (roziyallohu anho) dan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh (s.a.v) “ Farzandlaningizga munosib onani ixtiyor qilinglar”, deganlar. Bo`lajak ona sog`lom, dinu-dinoyatli, soliha, go`zal tarbiyali bolmog`i baraka omilidir. Hozirda mamlakat miqyosida oilada mehr-muhabbat, o`zaro hurmat muhiti, onalikni muhofaza qilish, ona va bola salomatligini mustahkamlash, xotin-qizlar iqtidorini ro`yobga chiqarish, jamiyatda hurmatini oshirish uchun bir qator islohotlar joriy etilyapti.

Darhaqiqat, Rasululloh (s.a.v) butun insoniyat uchun oliy o`rnakdir. Ul zotdan butun umr davomida mukammal o`rnak olish uchun bu tuyg`u insonga yoshlikdan uning ongi endi shakllanayotgan paytdan singdirilishi kerak, chunki tarbiya insonlarni fazilatli jamiyatga foydali qilib yetishtirishning eng qisqa yo`lidir. Shuning uchun farand tarbiyasida hadis ilmini o’rgatish va o’rganish ulkan ahamiyat kasb etadi. Rasulimiz (s.a.v) solih farzand, barkamol avlod tarbiyalashning eng muhum omillarini o`zlarining shaxsiy hayotiy namunalarida ko`rsatib bergenlar. Zotan biz hamisha faxr bilan tilga oladigan, butun dunyo tan beradigan, asarlari ko`zimizga to`tiyo bo`lgan allomalarimizning barchasi shu manaviy omil asosida bu darajaga erishganlar. Ul zotga chin ma’noda muhabbat qo`ygan avloddan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Bunga shonli tariximiz jonli guvohdir. Ul zotning siyratlarni o`rgansak va or`gatsak, diniy qadriyatlarimizni, o`zligimizni saqlagan bo`lamiz.

## REFERENCES

1. Hadis I tom. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Qomuslar Bosh Taxririysi – Toshkent 1991.
3. Odamiylik mulki. Tohir Malik. Sharq nashriyoti – Toshkent 2014.
4. 9-sinf adabiyot darsligi 2018-yil (168-169) betlar
5. Yandex ijtimoiy tarmog`idagi forum.ziyouz.com sayti
6. Elektron kutubxona [www.davron.uz](http://www.davron.uz) sayti
7. Tarix uchun mo`ljallangan [www.qadriyat.uz](http://www.qadriyat.uz) sayti